

BUXORO AMIRLIGINING ORDEN VA MEDALLARI

Sayfullayeva Nozanin

NavDU tarix fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17151425>

Markaziy Osiyo tarixida Buxoro amirligi (1785-1920) o'ziga xos siyosiy va madaniy markazlardan biri bo'lib o'z davlatchilik tizimi, diplomatik aloqalari va ijtimoiy tuzumiga ega edi. Amirlikda davlat ramzlari, hukmdor nishonlari, harbiy va ma'muriy xizmatlarni taqdirlash tizimi ham shakllangan. Bu tizimning muhim unsurlaridan biri orden va medallar hisoblangan. Ular davlatning siyosiy qudratini namoyon etish, amaldorlar va sodiq kishilarni rag'batlantirish, shuningdek diplomatik aloqalarda faxriy sovg'a sifatida qo'llanilgan. Sharq mamlakatlarida qadimdan hukmdorlar o'z sodiq amaldorlari va lashkarboshilarni qimmatbaho liboslar, oltin- kumush buyumlar, aslahalar hamda nishonlar bilan mukofotlashgan. Buxoro amirligida ham bu an'ana davom etgan bo'lib, XIX asr o'rtalaridan boshlab g'arb davlatlari tajribasiga asoslangan holda maxsus orden va medallar joriy qilina boshladi. Amirlar hukmronligi davrida medallar ikki maqsadda berilgan:

1. Ichki taqdirlash vositasi- davlat va jamiyat oldidagi xizmatlarni e'tirof etish uchun

2. Diplomatik qarz- chet ellik elchilar, konsullar va sodiq qo'shin boshliqlariga topshirilgan.

Amir Muzaffar (1860-1885) davridagi orden va medallar. Amir Muzaffar ibn Nasrullo Buxoro amirligini markazlashtirgan davlatga aylantirish jarayonida mukofot tizimiga alohida e'tibor berdi. Amirlikning birinchi ordeni 1881-yilda Amir Muzaffarxon tomonidan joriy etilgan va bu orden "Nishoni Buxoroi sharif" – "buxoroi sharifning ordeni" deb nomlangan. Bu orden bilan taqdirlash ilk bora Rossiya imperiyasining imperatori Aleksandr II ga nasib etgan. Amir Muzaffarxon esa buning evaziga imperiyaning " Avliyo Anna " 1-darajali ordeni bilan taqdirlangan. Bu orden o'ziga xosligi va chiroyli ko'rinishi bilan boshqa ordenlardan ajralib turgan. Bu orden bo'yinga emas, balki ko'krakka taqilgan. Uni taqib yurish o'sha davrdagi amaldorlarning kiyimlariga noqulaylik tug'dirmagan, uni to'nlarga ham , yaktaklarga ham bemalol taqib yurish mumkin bo'lgan. Qizig'i shundaki, amirlikda bu ordenni, umuman barcha ordenni "nishon" deb yuritishgan. "Nishoni Buxoroi sharif" ordenidagi 8 qirrali yulduz o'zbek davlatchiligining tarixiy ramzlari asosida ishlab chiqilgan. Orden 8 darajali unvonlarga bo'lingan. Eng yuqori darajali unvondagi 8 qirrali yulduz toza oltindan ishlangan bo'lib, unga brilliant toshlar qadalgan. Ikkinchi darajali darajali ordenning ham yulduzi oltindan ishlangan bo'lib, u olmos toshlar bilan bezatilgan. 3-4-5-darajadagi ordenlar oltindan, 6-7-8- darajadagi ordenlar esa kumushdan tayyorlangan. Kumush ordenlarning og'irligi 44,3gramm, diametri 90 millimetrga teng bo'lgan. Bu ordenlar darajasiga qarab, bir- biri bilan ko'rinishi va yozuvlari bilan farq qilgan.

Bundan tashqari, amirlikda Abdullaxadxon davrida ham bir necha ordenlar joriy qilingan. Bu orden "Toj" yoki "Nishoni toji Buxoroi sharif dar-us-saltanat 1317"- "Poytaxt Buxoroi sharifning toj ordeni" deb (1899-1900) atalgan. Orden o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan: maxsus belgi kvadrat va qizil lenta yoki bo'yinbog'dan iborat bo'lgan. Orden kvadrat shaklda bo'lib, uning ichida naqshlar bo'lgan, naqshlar ustida esa to'rtta katta olmos tosh, yuqorisida uchta kichik olmoslar ketma -ketlikda qadalgan.

1898-yilga kelib amirlikda, eng yuqori darajali orden "Iskandar Salis"- "Aleksand quyoshi" dwb nomlangan bo'lib, bu orden Aleksandr III ning sharafiga qabul qilingan.

XIX asrning oxirida Buxoroda “xizmatlari uchun “ medallari ham paydo bo’la boshlagan.

Buxoro amirligining so’ngi hukmdori Olimxon davrida orden va medallar siyosiy jihatdan ham muhim o’rin tutdi. 1915- yilda “ Urushda mardonavor kurashganlar xotirasiga bag’ishlanadi “ “Buxoroi sharif 1915-1916-yillar” medaliga asos solindi. Bu medal ko’krak nishoni bilan buxoroliklar, yoki harbiy xizmatda qahramonlik ko’rsatganlar taqdirlangan. Orden va medallarni taqib yurish qoidalari ham mavjud bo’lgan. Manbalarda keltirilishicha, ordenlarni amir yoki amirning yuqori lavozimidagi amaldorlari bilan o’tkaziladigan uchrashuvlarda taqib borish urf bo’lgan. Ordenlar ko’krak qafasining chap tomoniga, yani yaktak yoki to’nga taqib qo’yilgan.

Buxoro amirlari orden va medallarni nafaqat ichki siyosatda, baaki xalqaro munosabatlarda ham faol qo’llashgan. Ular Rossiya, Eron, Usmoniylar va boshqa davlatlar elchilariga sovg’a qilinib, amirlikning siyosiy obro’sini oshirishga xizmat qilgan.

Hozirgi kunga kelib Rossiya federatsiyasidagi Sankt Peterburg shahrida joylashgan Ermitaj muzetining fondida amirlikka tegishli bo’lgan orden va medallarning bir necha turlari saqlanib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo’lsak, mustaqillik yillarida Buxoro amirligi davlatchiligining shakllanishi va rivijlanishi borasida bir qancha izlanishlar olib borildi, lekin kerakli ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Amirlikda joriy etilgan bir qancha ordenlarning nomlari xanuzgacha nomalum bo’lib qolmoqda. Bugungi kunda bu mavzu o’zbek davlatchiligining milliy- tarixiy ramzlarini to’liq o’rganilmagan soxalaridan biri. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy davlatchiligimiz tajribasini o’rganish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy huquqiy tizimni takomillashtirish bo’yicha bir qator dolzarb vazifalarga etibor qaratish lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Azamov M. Buxoro amirligi amirligi tarixi. Toshkent: 1991
2. Axmedov B. Amir Olimxon va Buxoro amirligi.- Toshkent Sharq 2005
3. Fayziyev SH. Buxoro: siyosiy va madaniy taraqqiyot tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti 2015.
4. O’zbekiston davlat tarixi muzeyi fond materiallari
5. Sayfulloyev N. Amir Olimxon va Buxoro amirligi.- Buxoro: Buxoro nashriyoti 2007